

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INVESTITSIYALARING O'RNI VA ULARNI JALB ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

Hojiqulov Feruza Dona qizi

hojiqulova@tersu.uz

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi

Xojimuratov Zafarbek Jo'ra o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizga jalb qilinadigan investitsiyalar to'g'risida olimlarni qarashlari, investitsion muhit, investitsiyalar turlari mohiyati, to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar va bizni siyosatimizdagi olib boriladigan ishlar to'g'risida ilmiy-nazariy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsiya muhiti, investitsion faoliyat, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya, portfel investitsiyalar.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyat yo'lga qo'yilishini hukumatimiz yuritayotgan oqilona investitsiya siyosati mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi"¹ - degan ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega. Albatta, kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish orqaligina biz o'z iqtisodiyotimizni yanada gullab yashnatishimiz mumkin. Bunda xorijiy investitsiyalar o'rni katta hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 1993 yil, 16-17 betlar.

Mustaqillik yillarda davlatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar, tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, xorijiy investorlarga bir qator moliyaviy imtiyozlar yaratildi. Davlatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “uzoqni ko‘zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferentsiyalar yo‘lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o‘sish sur’atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta’minalash bo‘yicha o‘z ijobiyligi ta’sirini berdi”², deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini va uni keng ko‘lamda iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etish dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyoti barcha sohalariga investitsiyalar jalb etish, aholi turmush darajasini oshirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashda hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim o‘rin tutadi. Shu bois, hududlarda mazkur masalaga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”³.

Investitsiya iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri va investitsiyalash jarayonlari iqtisodiyot tarkibini qayta qurishning asosiy negizini tashkil etganligi bois, bu sohani rivojlantirish va takomillashtirib borish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hamda izlanishlar olib borilmoqda. Investitsiya borasida tadqiqot olib borilar ekan, avvalambor, “investitsiya” tushunchasi haqida ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi. Shu ma’noda bir qator iqtisodchi olimlarni “investitsiya” tushunchasiga bergen ta’riflarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. Hozirgi vaqtgacha investitsiya tushunchasiga iqtisodchi olimlar turlicha ta’rif berib keladilar. Investitsiya so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “invest” aynan solish, kiritish, qo‘yish degan ma’nolarni bildirib, kapital solish, kapital kiritish yoki kapital qo‘yish ma’nolarida ta’riflanadi.

² И.А.Каримов Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислоҳотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом этириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. Ўзбекистон нашриёти, 2015 й., 66.

³ <http://parliament.gov.uz> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018йил 28декабрь.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Iqtisodchi olimlar investitsiyalarni quyidagicha iqtisodiy mazmunda talqin etishgan, xususan Nobel mukofotini iqtisodiyot bo'yicha laureate U.F. Sharp fikricha, "Investitsiyalar kelgusida qiymat olish maqsadida hozirgi vaqtida muayyan qiymatlikdan voz kechishdir"⁴, deb ta'riflagan.

K.R. Makkonnell va S.L. Bryularning investitsiyaga bergen quyidagi ta'riflari ham kapital qo'yilmalar tushunchasiga ma'no jihatdan yaqinligini aytish mumkin: "Investitsiyalar – moddiy zahiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarish xarajatlaridir"⁵.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya jalb qilish sanoat korxonalarini ilg'or texnika-texnologiyalar bilan qurollantirishning, shuningdek, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda asosiy omil ekanligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum.

D.M. Rozenberg o'zining "Investitsiyalar" lug'atida investitsiyalarga ta'rif berar ekan, investitsiya – ko'paytirish, daromad olish yoki kapitalni o'strish maqsadida pul sarflanishidir, degan fikrni beradi⁶.

Milliy iqtisodiyotdagi investitsiyalar roliga baho berib, rossiyalik iqtisodchi olim E.V. Mixaylova "investitsiyalar keljakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi"⁷, degan fikrni ilgari surdi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar L.Dj. Gitman, M.D. Djonkning "Investitsiyalash asoslari" asarida shunday ta'kidlanadi: "Investitsiyalar – kapitalning shunday joylashtirilishi, buning natijasida sarflangan capital qiymatining saqlanishi yoxud o'sishi va daromadning ijobiy darajasi ta'minlanadi"⁸. Bu joyda sarflangan kapital qiymatining saqlanishi degan fikr atrofida mulohaza yuritish o'rini bo'ladi. Chunki har qachon kiritilgan investitsiyadan maqsadli foyda olish ko'zda tutilgan bo'lib, aksincha holatlarda hech bo'limganda o'rnini qoplashga e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni haqida iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya

⁴ Шарп У., Александр Г., Бейли Дж., Инвестиции: Пер.с англ. – М.: Инфра-М, 2010. - 1028 с.

⁵ Макконнел К.Р. ва Брю. С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т.: Пер.с англ. 13-го изд.; Учеб.- Т. 1-М.: ИНФРА-М, 2001.-[974] с

⁶ Розенберг Д.М. Инвестиции.- М.:ИНФРА, 2007, с-173.

⁷ Михайлова. Е.В. Финансовые рынки и их формирование. Под. Ред. Л.Н.Красавиной. - М. 2007, с-357.

⁸ Лоренс Дж.Гитман, Майкл Д.Джонк. Основы инвестирования.- М.:Дело, 2007, с-10.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tushunchasiga ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning birida “Investitsiyalar – barcha turdagি mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida xalq xo‘jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi” deyilgan⁹.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qayta tahrirdagi qonunida investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berib o‘tilgan ya’ni: Investitsiya -iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqdir¹⁰ deyiladi. Shunday qilib, “Investitsiya” deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagи mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklar barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning umumiyligi holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Boyliklar shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasini ko‘rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

“Investor” foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati ob’ektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub’ekti, “Mahalliy investorlar” investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, “Reinvestitsiyalar” investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari ob’ektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, roylari, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to‘lovlar va haqlarning boshqa turlari, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari” chet ellik investoring hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan investitsiyalari, “Chet el investitsiyalari” chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlar,

⁹ Фозибеков Д.Ф., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартиба солиш.-Т.: ТМИ, 1997, 72-6.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 2-modda

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

shuningdek reinvestitsiyalar, “Chet ellik investorlar” chet davlatlar, chet davlatlarning ma’muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o’rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub’ekti bo’lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko’rsatadigan yuridik shaxslar, chet davlat fuqarolari va O’zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo’lmagan shaxslar¹¹.

Kapitallar migratsiyasini qabul qiluvchi davlatlarga kapitalni qabul qilish davlatlar iqtisodiyotiga har xilda ta’sir qiladi. Qabul qiluvchi davlatlarga investitsiyalarning quyidagi afzalliklari mavjud: iqtisodiy, ilmiy-texnik rivojlanish, moliyalashtirish manbaiga ega bo’lish, yangi ishlab chiqarishni o’zlashtirish, modernizatsiyalash, texnologiyalar, boshqaruv ko’nikmalari, savdo brendlari (belgilari), davlatlarning tashqi bozorlar bilan o’zaro aloqalar kengayishi, qabul qiluvchi iqtisodiyot raqobatbardoshligi oshishi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash.

Aksariyat nazariyalar xorijiy ishlab chiqarish va xalqaro savdoning o’zaro o’rnini bosuvchi bo’lib, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimi yuqori texnologiyalar kirib kelishiga olib keladi, bu esa o‘z-o‘zidan mavjud resurslardan samarali foydalanishga olib keladi, degan fikrga asoslanadi.

Ayrim tadqiqotlar ko’rsatishicha, xorijiy investitsiyalar mahalliy firmalar holatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Xususan, mahalliy firmalar yirik kapital qo‘ymalarsiz ham mehnat unumdorligini oshirishga erishishlari mumkin, buning samarasi esa uzoq istiqbolda ko‘rinadi.

Investitsiyalar yuqori malakali ishchi kuchiga bo’lgan talabni ancha oshiradi, aholi farovonligi darajasini yuqoriga ko’taradi, chunki Transmilliy Milliy Korporatsiyalar tomonidan esa yuqori haq to‘lanadi. Mahalliy firmalar Transmilliy Milliy Korporatsiyalar tomonidan yaratilayotgan talabga asosan qo’shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga majburdirlar. Bu rivojlanish darjasи past mamlakatlarga xos xususiyat, ular o‘z sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlariga deyarli ega emas.

To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ijobjiy ta’sir bilan bir qatorda, salbiy ta’sirlari ham mavjud. Ulardan biri

¹¹ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрь “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти түғрисида” ЎРҚ-598-сон Конуни.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

shuki, ichki kapital qo'yilmalar xorijiy investitsiyalar va mahalliy korxonalarning yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan Transmilliy Milliy Korporatsiyalar tomonidan siqib chiqarilishi hisoblanadi.

Xorijiy portfel investitsiyalar milliy bozor likvidligini oshiradi, qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga esa bevosita ijobiliy ta'sirini ko'rsatadi. Moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash, moliyaviy vositachilikni kengaytirish, riskni kapital hajmlarining va yangi kompaniyalar sonining ortishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy portfel investitsiyalarning qabul qiluvchi iqtisodiyotga salbiy ta'sirini quyidagicha aytish mumkin:

1. Erishilayotgan yutuqlardan moliyalashtirish xarajatlari baland bo'lishi mumkin. Agarda aktsiyadorlik kapitali investitsiyalar tavakkalchiligini (riski) taqsimlanishining bir qismini o'z ichiga olsa, obligatsiyalarga sarflangan investitsiyalarda risk bo'lmaydi.

2. Asosiy salbiy tomonlari bu portfel kapital oqimlari yuqori bo'lgan risk ta'sirida barqaror tendensiyaga ega bo'lishi mumkin.

Portfelli investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti holatiga aktivlar o'sishi hisobiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa moddiy boyliklar iste'moli ortishiga olib keladi va kapital egalarining ularni boshqa qimmatli qog'ozlarga yoki aktivlarga investitsiyalashga qaror qilgunlarigacha davom etadi.

1- Investitsiyalar tavsiflari¹²

INVESTITSIYANING TURLARI					
Investitsiya obyekti bo'yicha	Mulk shaklida	moliyaviy		spekulyativ	
Asosiy investitsiya maqsadlari	To'g'ridan to'g'ri	portfelli	Bevosita	nomoliyaviy	intellektual
Egalik huquqi bo'yicha	xususiy	davlat	xorijiy	Qo'shma	
Investitsiya muddati bo'yicha	Qisqa muddatli	O'rta muddatli		Uzoq muddatli	

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Iqtisodiy adabiyotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tor va keng ma’nodagi ta’riflari keltirilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyaning tor ma’nodagi ta’rifi bu yo‘nalishning bazaviy metodologiyasi kapital harakatini erkinlashtirish: mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish va korxona ustidan doimiy nazorat huquqini qo‘lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakati qamrab olinadi. Bunday yondashuv asosida investor sifatida mazkur mamlakatning norezidentlari va xorijlik rezidentlar maydonga chiqishlari mumkin. Har ikkala toifalar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hosil bo‘lishining quyidagicha yo‘nalishlari ko‘rsatiladi: 100 foizlik xorijiy mulkchilikka asoslangan korxona, shu’ba kompaniyasi yoki bo‘linmasini tashkil etish yoki kengaytirish, mavjud korxonani to‘liq mulkchilikka sotib olish, yangi yoki harakatdagi korxonada ishtirok etish 5 vil voki undan ko‘n muddatlargacha qarz berish. (1.1.1-rasm.)

To‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar

Investorga investitsiya kiritilayotgan ob‘ekt ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi ishlab chiqarishga sarflangan uzoq muddatli xorijiy qo‘yilmalar

Asosiy xususiyati

Pirovard maqsadi foyda ko‘rinishida daromad olishga qaratilgan qo‘yilmalar

Tadbirkorlik kapitalining ustuvor shakli

Keng tarqalgan shakli
Xususiy kapitalga asoslangan to‘g‘ridan -to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar

Amalga oshirish asoslari

xorijiy investoring investitsiya kiritilayotgan ob‘ekt ustidan to‘liq alik qilishi;
xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan ob‘ekt ustav pitalida 10% dan kam bo‘lмаган qismi ustidan nazorat o‘rnatish;
xorijiy investoring investitsiya kiritilgan ob‘ektni boshqarishda samarali qatnashishi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

1-rasm. To‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar¹³

Portfel investitsiyalar yuqori likvidli bo‘lib, harakatchan hisoblanadi. Ularni riskli zonadan boylik orttirish yengilroq bo‘lgan muhitga ko‘chirish qiyin emas. Portfel investitsiyalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va professional bilimlarni olish uchun katta mehnat talab etmaydi. (2-rasm.)

Kapital olib chiqishning tadbirkorlik shakli ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqadorligi tufayli ko‘pincha “ikkinchi iqtisodiyot” deb ataladi.¹⁴

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, kapitalni chetga chiqarishni asoslab beruvchi ilmiy nazariyalar ishlab chiqila boshlangan. Ushbu yo‘nalishlarni quyidagicha yoritish mumkin.

Portfel investitsiyalar -

Uzoq muddatli daromad olish huquqini ta’minlovchi, ammo investitsiyalash ob’ekti ustidan nazorat qilish huquqini bermaydigan ishlab chiqarishga qisqa va o’rta muddatli kapital

Asosiy xususiyati

Pirovard maqsadi divident yoki qat’iy foiz stavka shaklidagi daromad olishga qaratilgan

tadbirkorlik kapitalining ustuvor shakli

Asosiy-xorijiy korxona mulkida qatnashish huquqini beruvchi aktsiyalarni sotib olish orqali xorijiy investitsiya kiritish: xorijiy korxona bilan kredit munosabatlarini ifodalovchi obligatsiyalar va veksellar sotib olish orqali xorijiy investitsiya kiritish.

Amalga oshirish shakllari

- a) xorijiy investoring investitsiya kiritilayotgan ob’ekt ustidan to’liq egalik qilishi;
- b) xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan ob’ekt ustav kapitalida 10% dan kam bo‘limgan qismi ustidan nazorat o’rnatish;
- v) xorijiy investoring investitsiya kiritil gan ob’ektni boshqarishda samarali qatnashishi.

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁴ А.В.Ваҳобов “Халқаро инвестиция” Тошкент – 2003 й. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Kapitalni chetga chiqarishning zamonaviy va ommaviy sabablarini asoslash. Ushbu turdag'i tahlillar makroiqtisodiy qonuniyatlar asosida amalga oshirilishi mumkin;

Jahon kapital oqimlarini o'zaro bog'liqliklarini umumlashtirish. Ushbu yo'naliш jahon bozori globallashuv sharoitidagi kapital oqimlarni rivojlantirish qonunlariga asoslanadi.

Kapitalni dastlab chetga chiqarishda korporatsion raqobat yaxshiligini isbotlashga qaratilgan nazariyalarni ko'rib chiqsak. Ushbu retsept mamlakatda yaqqol ko'rinishi mumkin. Ushbu turdag'i tadqiqotlar mantiqan monopolistik raqobatga ega bozorga va bozor qoidalariiga asoslanadi. Tovar kimda raqib mahsulotiga nisbatan biror afzallikka ega bo'lsa, ushbu g'olib sanaladi.

2-jadval

To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtaqidagi o'ziga xos farqlar¹⁶

Belgilar	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Olib chiqishning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga ko'ra erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	-xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; -aksiyalar nazorat paketini sotib olish(XVF ustaviga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasi kerak)	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish(AQSh, Yaponiya va Germaniyada -10%)
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, devidentlar	Devidentlar, foizlar

Mazkur yo'naliшdagi nazariyalar ichidan quyidagilarni alohida ajratish mumkin: mahsulotning hayotiylik sikli va nazariyasi, misol uchun M.Portering raqobatbardoshlik nazariyasi, J.Danningning eklektik paradigmasi.

Raqobatbardoshlik nazariyasi M.Portet tomonidan (1990 yillarda) ishlab chiqilgan bo'lib, raqobatbardoshlik nazariyasi jahonning 8 mamlakatidagi 100 dan

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

oshiq tarmoqlarni tahlil qilish asosida yaratgan. Ushbu tahlillar asosida trans milliy korporatsiyalarning jahon bozoridagi yutuqlarini ta'minlovchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratiladi. Ushbu omillar sintezini “Raqobat afzalliklari olmosi” deb ataydi M.Porter. Ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyatini kafolatlashni nazarda tutadi.(3-jadval)

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar qulay investitsiya muhitini yaratishda asosiy omil bo‘lib kelmoqda:

3-jadval

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyaning asosiy nazariy kontseptsiyalari¹⁷ (Makroiqtisodiy yondashuv)

“Investitsiya muhiti” terminiga izoh beradigan bo‘lsak, bu- mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidir.

“Investitsiya muhiti” quyidagi omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, qazilma boyliklar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o‘rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig‘imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, urbanizatsiya darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlar belgilanganligi va boshqalar.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin: investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me’yorlar va konventsiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish, respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish, ishlab chiqarish bilan bog‘liq investitsiyalarni kiritishga ko‘maklashish, mamlakat kredit qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

¹⁷ А.В.Ваҳобов “Халқаро инвестиция” Тошкент – 2003 й. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети. 39-6.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo‘lgan davlat tomonidan rag‘batlantiriluvchi yo‘nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun makammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.¹⁸

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g’risida”gi qonuni, 2-modda
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрь “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида” ЎРҚ-598-сон Қонуни.
3. <http://parliament.gov.uz/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018йил 28декабрь.
4. А.В.Ваҳобов “Халқаро инвестиция” Тошкент – 2003 й. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети. 39-б.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. – Т.: O‘zbekiston, 1993 yil, 16-17 betlar.
6. И.А.Каримов Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислоҳотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулқчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. Ўзбекистон нашриёти, 2015 й., 66.
7. Лоренс Дж.Гитман, Майкл Д.Джонк. Основы инвестирования.- М.:Дело, 2007, с-10.
8. Макконнел К.Р. ва Брю. С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т.: Пер.с англ. 13-го изд.: Учеб.- Т. 1-М.: ИНФРА-М, 2001.-[974] с
9. Михайлова. Е.В. Финансовые рынки и их формирование. Под. Ред. Л.Н.Красавиной. - М. 2007, с-357.
10. Розенберг Д.М. Инвестиции.- М.:ИНФРА, 2007, с-173.

¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрь “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида” ЎРҚ-598-сон Қонуни

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

11. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж., Инвестиции: Пер.с англ. – М.: Инфра-М, 2010. - 1028 с.
12. Фозибеков Д.Ф., Коралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш.-Т.: ТМИ, 1997, 72-б.
13. Hojiquulova F., Eshquvvatov O. UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA DAROMADLARIDAN MAHALLIY BUDJETLARGA AJRATMALAR HISOBI // "Science Shine" International scientific journal. – 2023. – Т. 7. – №. 1.
14. qizi Hojiquulova F. D., Eshquvvatov O. A. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA SUN'iy INTELLEKTNING ROLI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 23. – С. 19-23.
15. Feruza X., Eshquvvatov O. A. SUNIY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TASIRI // "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 36-39.
16. Hojiquulova F. MAHALLIY BYUDJETLARDAROMADARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 13.
17. Hojiquulova F. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARING RIVOJLANISHI BANKLARNING TRANSFORMATSION SALOHIYATIGA TA'SIRI //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 317-318.
18. Hojiquulova F. et al. IMPROVING THE TAX SYSTEM IN OUR COUNTRYTRAINING ISSUES //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 378-382.
19. Hojiquulova F. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH MASALALARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. С7. – С. 378-382.